

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**TIJORAT BANKLARIDA AUDITNING XALQARO**  
**STANDARTLARINI JORIY ETISH MASALALARI**

**Mirzayev O.** - Bank-Moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit”

*kafedrasi dotsenti*

**Kamoliddinova Mohiniso** - Bank-Moliya

*akademiyasi magsitranti*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda tijorat banklari auditinig xalqaro audit standarlari asosida tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018 yil 19- sentyabrdagi “Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-3946-sonli qarorida keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida fikrlar keltirilgan. O'zbekiston Republikasi markaziy banki tomonidan tijorat banklarida tashqi va ichki audit o'tkazish tartibini xalqaro audit standarlari asosida tashkil qilish ishlab chiqildi va u asosida tijorat banklarida tashqi audit tekshiruvlarini AXS ni qo'llashda kelib chiqadigan muammolar va ularga doir yechimlar bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** Tijorat banklari, tashqi audit, ichki audit, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, auditorlik tekshiruvlari, AXS, hisobotlarni tekshirish, audit riski, auditda tanlash, xalqaro tashkilotlar.

**ISSUES OF IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL  
STANDARDS OF AUDITING IN COMMERCIAL BANKS**

**Kamoliddinova Mohiniso Bahodir qizi**

*Graduate Student of The Banking and Finance Academy*

**Abstract:** To ensure the implementation of the tasks set for the organization of the audit of commercial banks in our country in the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 19, 2018 No. PQ-3946

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

"On measures to further develop auditing activities". conclusions are given on the measures implemented on the basis of international audit standards. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan developed the organization of external and internal audit procedures in commercial banks based on international audit standards, and on this basis, external audits are carried out in commercial banks on the problems arising from their application. AXS and their solutions. theoretical conclusions are presented.

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida xalqaro auditorlik tashkilotlarining tegishli vakolatxonalari mavjud bo'lib, barchasi xalqaro audit standartlari va ularga mos keladigan me'yoriy hujjatlardan keng foydalanadilar. Dunyoda auditorlar faoliyatiga qo'llaniladigan umumiy standartlarni ishlab chiqishda Amerika qasamyod qilgan buxgalterlar instituti (AICPA) muhum ro'1 ko'rsatmoqda va uning maqsadi tashqi audit tekshiruvlarida foydalilaniladigan AXS ni ishlab chiqsh va uni amaliyotga tadbiq etish tartiblarini belgilashdan iborat.

Auditning Xalqaro Standartlari- AXS (International Standards of Auditing ISAS) Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasi BHF (International Federation Accountants-IFAC) tarkibidagi auditorlik amaliyoti bo'yicha Xalqaro Komitet - AAXK (International Auditing Practice Committee IAPC) tomonidan ishlab chiqiladi. IFAC 1977 yil 7 oktabrda tashkil topgan. Ushbu Federatsiyaga dunyodagi

100 dan ortiq mamlakatlarning, shuningdek, O'zbekistonning ham, milliy buxgalterlik jamoat tashkilotlari a'zo bo'lib kirgan.

AXS ga muvofiq auditorlik faoliyatining tamoyillari quyidagilardan iborat: halollik, haqqoniylik, mustaqillik, maxfiylik va puxta bilimga egalik (kompetentlilik). Standartlashtiriladigan har bir ob'ekt bo'yicha 100 ta raqam (pozitsiya) berilgan. Standartlash ob'ektlari 11 ta bo'lgani uchun jami 1100 standart ishlab chiqilishi mumkin. Hozirgi amaliyotda bunday standartlar uchun ehtiyoj sezilmaganligi sababli ularning ko'pchiligidan foydalanimaydi. Ushbu standartlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish va auditorlik xulosasini tuzishning asosiy qonun-qoidalari keltirilgan. Bular yordamida auditor auditorlik

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tekshiruvining hajmi va ko'lamini, shuningdek, muayyan uslubini tanlashi mumkin. Yana audit standartlari auditorlik tekshiruvi sifatini baholovchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Maxsus standartlarga quyidagilar kiradi:

- Maxsus maqsaddagi audit shartnomasi bo'yicha auditorlik hisoboti;
- Istiqbolli moliyaviy ma'lumotlarni tekshirish;
- Moliyaviy hisobotning sharhi bo'yicha kelishuv;
- Moliyaviy hisobotga taalluqli amallarni bajarish bo'yicha kelishuv.
- Moliyaviy ma'lumotlarning kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuv.

Bulardan kelib chiqib, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini tashqi auditorlik tashkilotlari tomonidan auditni amalga oshirishda AXS dab keng foydalaniladi. Shuningdek, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, banklarning daromadlari va xarajatlari bo'yicha foyda va zararlar hamda boshqa umumiylar daromad to'g'risidagi hisobot, kapitalning harakati to'g'risidagi hisobot, pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot va izohlar to'plamini auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi va uning natijalari bo'yicha auditorlik umumiylar xulosasini shakllantirib chiqadi.

Bu yerdagilar asosiy e'tibor tijorat banki faoliyatini tekshirish, shuningdek tijorat banklari emissiya-kassa operatsiyalarini audit qilishga qaratilishi lozim. Tashqi audit o'tkazish jarayonida auditorlar jarayonini rejalashtirish, auditorlik risklarini aniqlash, audit jarayonida tanlama tekshirish, auditorlik hisoblari va auditorlik xulosasini shakllantirish kabi masalalarga ko'proq e'tibor qaratishi lozimligini belgilaydi. Tijorat banklari auditini tashkil qilishda ahamiyat berilishi kerak bo'lgan masalalarni tashqi auditor tomonidan to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek emissiya-kassa operatsiyalarini( kassaning qoldig'i, kunlik xujjatlar to'plami va kassa hisoboti, kassirlarga qo'yilgan talablar, rezerv kassa) to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilinishini tekshirish jarayonida tijorat banklari buxgalteriya tizimi, ichki bank operatsiyalarining audititni tekshirish amalga oshiriladi. Banklarining moliyaviy hisobotlarini tekshirishda olingan auditorlik dalillarini to'g'ri baholash o'ta muhim hisoblanadi. Misol uchun tashqi,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ichki va aralash dalillar. Tijorat bankining auditini o'tkazish uslubi sifatida ularning tekshirilishi muhimlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Muhimllik darajasi qancha yuqori bo'lsa, auditorlik risklari shuncha kamroq bo'ladi. Shu sababli audit o'tkazishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- a) to'liq auditorlik tekshiruvini amalga oshirish;
- b) tanlama tekshirish;
- c) aralash tekshirish va tasodifiy tekshirish.

Banklarining moliyaviy hisobotlari auditini amalga oshirish mobaynida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Bank aktivlarini yetarliligi, kapitalning ishonchligi, pul mablag'larini o'z vaqtida ta'minlanishi;
2. Tijorat banklarining daromadlari va harajatlari tarkibi, ularning shakllanib borishi, foya va zararlar tarkiblari va boshqa umumiy daromadlarni shakllanishini to'g'ri amalga oshirilganligi
3. Bank daromadlarini to'liq tushunishi va ularni guruhlanishi;
4. Bank kapitalining yetarliligi va uning o'z mablag'larining manbalarini tahliliy amallar yordamida tekshirish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tijorat banklarida hozirgi kunda yuqoridagilardan tashqari moliyaviy hisobotlarning auditini uchun zarur bo'lgan dalillarni to'plash va imkonli boricha audit jarayonida yanada ko'proq dalillar to'plash muhim hisoblanadi. Chunki ushbu auditorlik tekshiruvlari tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini to'g'riliqi va ishonchliliginini va ushbu hisobotlardan tashqi foydalanuvchilar tomonidan tegishli investitsion qarorlar qabul qilishiga yetarlicha dalil bo'ladi.

Shuning uchun respublikamizda bank tizimiga ishonchni oshishi bevosita va bilvosita tashqi auditorlik kompaniyalari tomonidan moliyaviy hisobotlarga berilgan auditorlik xulosalarining ishonchliliga bog'liq bo'lib, bank tashqi auditini amalga oshirish tizimlarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaymiz.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash haqida [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3254]
- Vaxobov A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K. Tashqi auditda xalqaro standartlarini joriy etish metodologiyasi. Toshkent: Moliya, 2010. - 168b.
- Frederik Mishkin "Pul, bank va moliya bozorlari iqtisodiyoti (Global nashr 11-nashr)" Pearson, Buyuk Britaniya, 2015 yil
- Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik, A.K.Ibragimov, Z.A. Umarov, K.R.Xatamov, N.K.Kuziev. T.: Iqtisod- moliya, 2020.
- Ibragimov A.K. Auditning xalqaro standartlari ichki auditning tashkiliy asoslari. T.: Moliya, 2013.-384b.
- Do'smuratov R.D. Audit asoslari. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -604 b.
- Bromvich M., Xong Ch. Faoliyatga asoslangan xarajatlarni hisoblash tizimlari va qo'shimcha xarajatlar. // Boshqaruv hisobi bo'yicha tadqiqotlar, 1999. № 10, p. 39-60